

AKSIZ SOLIG'INI HISOBLASH VA BUDJETGA O'TKAZISH TARTIBI**Turayev Alijon Akmal o'g'li**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Investitsiya
va innovatsiyalar" kafedrasida dotsenti v.b. PhD**Nurullayeva Adiba O'lmas qizi**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi**E-mail:** adibanurullayeva7@gmail.com,**Annotatsiya**

Aksiz solig'i davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri bo'lib, u asosan alohida turdagi tovarlar va xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. Mazkur maqolada aksiz solig'ini hisoblash mexanizmi, soliq bazasini aniqlash, stavkalarini qo'llash hamda uni davlat byudjetiga o'tkazish tartibini yoritishga bag'ishlangan. Aksiz solig'ini to'lovchilar doirasi, soliq solinadigan obyektlar, imtiyozlar hamda hisob-kitob jarayonida uchraydigan amaliy masalalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda amaldagi soliq qonunchiligi, xususan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida aksiz solig'ining hisob-kitob qilish bosqichlari va to'lov muddatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

Aksiz solig'i to'lovchilari, aksiz solig'i obyekti, aksiz solig'i bazasi soliq stavkasi, advalor stavka, mutlaq stavka, soliqni hisoblash tartibi.

Kirish. "Aksiz" frantsuzcha (accise) va lotincha (accidere) so'zlaridan olingan bo'lib, tarjima qilinganda «kesib olish» ma'nosini anglatadi. Aksiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan bilvosita soliqlarning bir turi hisoblanadi. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati byudjet tushumini ta'minlash orqali xalq xo'jaligi manfaatlarini qondirishga, ko'proq mablag'larni jalb ettirishi orqali namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy iste'molchilarning to'lov qobiliyatlarini oshishida o'z ifodasini topadi. Aksiz solig'ining asosiy vazifasi mablag' yig'ishdan iborat, ya'ni u fiskal funktsiyani to'liq bajaradi. Davlat aksiz solig'i orqali mamlakat hududiga ayrim tovarlarni ko'proq olib kirish yoki olib chiqish va buning aksini ifodalovchi vazifalarni bajarishi mumkin.

Aksiz solig'i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan hisoblanadi (2025-yilda aksiz solig'i tushumlari 20 trillion so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan taxminan 13% ga o'sgan)¹. Aksiz- bu ayrim tovarlarning narxiga yoki tarifiga kiritiladigan va xaridor tomonidan to'lanadigan, muayyan tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish uchun belgilangan bilvosita soliqdir. O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i 1992 yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar – savdo va oborotdan olinadigan soliqlarning o'rniga joriy qilingan. Aksiz solig'i individual

¹ O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali (gov.uz) va Davlat soliq qo'mitasi rasmiy axboroti

xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Quyidagi **yuridik va jismoniy shaxslar aksiz solig'ini to'lovchisi** hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;
- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan (aksiz to'lanadigan xizmatlar) mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchilar;
- benzin, dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni, shuningdek gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida yakuniy iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.
- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- Oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz solig'i obyektiga quyidagi operatsiyalar kiradi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

tovarni sotish (jo'natish);

garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik haxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol- mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan aksiz to'lanadigan xom ashyo

va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

7) benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish, bundan ixtisoslashtirilgan gaz ta'minoti korxonalari orqali aholiga maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilinadigan suyultirilgan gaz mustasno;

8) aksiz to'lanadigan xizmatlar ko'rsatish.

Aksiz solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza:

Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'ida realizatsiya qilingan hamda shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning natural holida ifodalangan hajmi soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Aksiz solig'i stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o'lchov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat'iy), shuningdek advalor va qat'iy stavkalardan tashkil topgan aralash stavkada belgilanadi. Quyida keltirilayotgan diagrammada aksiz to'lanadigan tovarlar sonining yillar bo'yicha o'zgarish tendentsiyasi

to'g'risidagi

ma'lumotlar

keltirilgan:

1-rasm. Aksiz osti tovarlari sonining o'zgarishi²

Soliq stavkalari har kalendar yil uchun Prezident qarori bilan belgilanar edi. 2020 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan belgilanadi. Aksiz solig'i quyidagi tovarlarga nisbatan belgilangan: tamaki mahsulotlari, alkogol mahsulotlari va neft mahsulotlari. O'zbekiston Respublikasi Soliqlik kodeksining 289³-moddasiga muvofiq 2026-yilda Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi.


Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari		Davlat Soliqlik Xizmati
T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	2026-yil 1-yanvardan: 340 000 so'm/1 000 dona 2026-yil 1-iyuldan: 365 000 so'm/1 000 dona
2.	Sigara	2026-yil 1-yanvardan: 20 000 so'm/1 dona 2026-yil 1-fevraldan: 21 500 so'm/1 dona
3.	Chilim uchun tamaki*	2026-yil 1-yanvardan: 600 000 so'm/kg 2026-yil 1-fevraldan: 642 000 so'm/kg
4.	Chekiladigan, o'rama tamaki	2026-yil 1-yanvardan: 600 000 so'm/kg 2026-yil 1-fevraldan: 642 000 so'm/kg
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan va shimiladigan tamaki	382 000 so'm/kg
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki mavjud bo'lgan o'xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	2026-yil 1-yanvardan: 450 000 so'm/kg 2026-yil 1-fevraldan: 481 500 so'm/kg
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	154 000 so'm/kg
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik (kartrijlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretalarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)**	2026-yil 1-yanvardan: 2 000 so'm/ml 2026-yil 1-fevraldan: 2 140 so'm/ml

2-rasm. Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkasi.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Prezidenti qarorlariga ilovalar.

³ O'zbekiston Respublikasi Soliqlik kodeksi

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289⁴-moddasiga muvofiq 2026 yilda Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi.

Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi				
T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari (1 litr uchun)		
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan	
1.	Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti, shuningdek don distillyati	15 000 so'm		
2.	Etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi (bundan texnik spirtni olish uchun sarflangan etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi mustasno)	5 000 so'm		
3.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari (aksiz to'lanadigan tovar tarkibidagi suvsiz etil spirtining 1 litri uchun, bundan 4 va 5-bandlar mustasno)	2026-yil 1-yanvardan: 76 000 so'm	2026-yil 1-yanvardan: 44 000 so'm	
		2026-yil 1-fevraldan: 60 000 so'm	2026-yil 1-fevraldan: 48 000 so'm	
		2026-yil 1-iyuldan: 48 000 so'm		
4.	Vino: tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	2026-yil 1-yanvardan: 14 000 so'm	2026-yil 1-yanvardan: 5 000 so'm	
		2026-yil 1-fevraldan: 12 000 so'm	2026-yil 1-fevraldan: 7 000 so'm	
		2026-yil 1-iyuldan: 10 000 so'm		
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	2026-yil 1-yanvardan: 20 000 so'm	2026-yil 1-yanvardan: 6 000 so'm	
		2026-yil 1-fevraldan: 15 000 so'm	2026-yil 1-fevraldan: 9 000 so'm	
		2026-yil 1-iyuldan: 12 000 so'm		
5.	Pivo	2026-yil 1-yanvardan: 6 000 so'm	2026-yil 1-yanvardan: 2 000 so'm	
		2026-yil 1-fevraldan: 5 000 so'm	2026-yil 1-fevraldan: 3 000 so'm	
		2026-yil 1-iyuldan: 4 000 so'm		

3-rasm. Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkasi

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289⁵-moddasiga muvofiq 2026 yilda Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi

⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi

Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari



T/r	Tovarlar nomi	Soliq stavkalari	
		2026-yil 1-yanvardan	2026-yil 1-apreldan
1.	Neft mahsulotlari:		
	AI-80 va undan yuqori benzin	375 000 so'm/tonna	402 000 so'm/tonna
	AI-91 va undan yuqori benzin	335 000 so'm/tonna	360 000 so'm/tonna
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	300 000 so'm/tonna	321 000 so'm/tonna
	dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	360 000 so'm/tonna	385 000 so'm/tonna
	EKO dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	325 000 so'm/tonna	348 000 so'm/tonna
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	510 000 so'm/tonna	546 000 so'm/tonna
2.	Polietilen granulalar		10%
3.	Tabiiy gaz		12%
4.	Yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilinadigan:		
	AI-80 va undan yuqori benzin	1 litr uchun 525 so'm/ 1 tonna uchun 700 000 so'm	1 litr uchun 562 so'm/ 1 tonna uchun 750 000 so'm
	AI-91 va undan yuqori benzin	1 litr uchun 470 so'm/ 1 tonna uchun 621 000 so'm	1 litr uchun 505 so'm/ 1 tonna uchun 665 000 so'm
	dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 525 so'm/ 1 tonna uchun 635 000 so'm	1 litr uchun 562 so'm/ 1 tonna uchun 680 000 so'm
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 525 so'm/ 1 tonna uchun 1 000 000 so'm	1 litr uchun 562 so'm/ 1 tonna uchun 1 070 000 so'm
	siqilgan gaz	1 kub metr uchun 750 so'm	1 kub metr uchun 805 so'm

Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari



T/r	Tovarlar nomi	Soliq stavkalari	
		2026-yil 1-yanvardan	2026-yil 1-apreldan
5.	Iste'mol qadog'iga qadoqlangan ichimliklar (bundan umumiy ovqatlanish sohasidagi korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tayyorlanib iste'molchilarga realizatsiya qilingan ichimliklar mustasno)*:		
	tarkibida shakar mavjud bo'lgan ichimliklar (100 ml mahsulot tarkibidagi shakar miqdoriga qarab)	1 litr uchun 500 so'm	5 grammgacha: 1 litr uchun 500 so'm 5 grammdan 10 grammgacha: 1 litr uchun 515 so'm 10 gramm va undan yuqori: 1 litr uchun 535 so'm
	tarkibida boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar mavjud bo'lgan ichimliklar		1 litr uchun 500 so'm
6.	Energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar	1 litr uchun 2 000 so'm	1 litr uchun 2 150 so'm
7.	Yupqa to'g'ralgan yoki yupqa shaklga keltirilgan, qovurilgan yoki quritilgan, iste'mol qadog'iga qadoqlangan, tarkibida kartoshka yoki uning ta'mini beruvchi qo'shimchalar bo'lgan mahsulotlar (chipslar) **		1 kg mahsulot uchun 15 000 so'm

4 -rasm. Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari⁶

Aksiz solig'ini hisoblash tartibi

Aksiz solig'i quyidagi umumiy formula asosida hisoblanadi:

⁶ Davlat soliq xizmati

Aksiz solig'i summasi = Soliq bazasi × Soliq stavkasi

Agar qat'iy stavka qo'llanilsa, unda soliq summasi mahsulot miqdoriga belgilangan stavkani ko'paytirish orqali aniqlanadi. Hisob-kitob jarayoni korxonaning buxgalteriya hisobi asosida yuritiladi. Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va aksiz solig'ining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishda aksiz solig'i summasi realizatsiya qilinadigan benzinning, dizel yoqilg'isining va gazning narxida hisobga olinadi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilganda aksiz solig'ining hisoblangan summasi soliq to'lovchining xarajatlari jumlasiga kiritiladi. Soliq davri - yil oyidir. Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi, bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilish hollari mustasno. Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda hisob-kitob avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Aksiz solig'ini budjetga o'tkazish tartibi qat'iy reglamentlangan bo'lib, u quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. soliq majburiyatining yuzaga kelishi (realizatsiya sanasi);
2. oylik hisobotni topshirish;
3. belgilangan muddatda soliqni to'lash;
4. to'lovni bank yoki elektron tizimlar orqali amalga oshirish;
5. to'lov intizomiga rioya qilish.

Mazkur tartib davlat byudjetining barqaror daromad bazasini shakllantirish va soliq tizimining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, soliqqa tortish tizimiga ko'ra aksiz solig'i bilvosita soliqlardan hisoblanib, mahsulot, tovar bahosi tarifiga ustama shaklda qo'yilib, iste'mol mahsulotining bahosining yuqori bo'lishiga narx-navoni o'sishiga bevosita ta'sir etadi. Aksizlar - tovarlar uchun qo'yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo'shiladi. Aksiz solig'i ayrim yuqori foyda keltiradigan tovarlarga, juda zarur bo'lmagan qimmatbaho buyumlarga, jamiyat uchun iste'moli zararli bo'lgan tamaki va alkogolli mahsulotlari qo'llaniladi. Respublikada ishlab chiqariladigan ayrim tovarlar va import qilinadigan tovarlar aksiz solig'iga tortiladi. Aksiz solig'i asosan respublika markaziy byudjetiga, faqat ayrim tovarlar bo'yicha mahalliy byudjetga tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali (gov.uz) va Davlat soliq qo'mitasi rasmiy axboroti
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Prezidenti qarorlariga ilovalar.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi
4. Davlat soliq xizmati
5. Soliqlar va soliqqa tortish. Tuxliyev B.K., Agzamov A.T. - Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – T.: « », 2022. – 400 bet.

6. Soliq va soliqqa tortish. /Alikulov S.A., Axrorov Z.O., Tuychiyev Sh.Sh./ Darslik. – Toshkent: “METHODIST NASHRIYOTI”,2024. – 244 b.
7. <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/33137>